

XI. KORXONA VA TASHKILOTLAR FAOLIYATINING UMUMIY TAVSIFI



Korxonalar va tashkilotlar yagona davlat registri ma'lumotlariga ko'ra, 2022 yilning 1 aprel holatiga ro'yxatga olingan yuridik shaxslar soni 43 254 taga yetdi, shundan faoliyat ko'rsatayotganlari soni 32 717 tani yoki jami ro'yxatga olingan yuridik shaxslarning 75,2 foizini tashkil qildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatga olingan korxona va tashkilotlarning asosiy qismi, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi (jami ro'yxatga olingan yuridik shaxslarning (52,3 %), savdo (14,6 %), sanoat (9,5 %) va qurilish (5,1 %) sohalariga to'g'ri keladi.



Jizzax viloyatidagi korxonalar va tashkilotlar sonining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (2022 yil 1 aprel holatiga)

	Ro'yxatga olingan		Faoliyat ko'rsatayotgan	
	birlik	jamiga nisbatan foizda	birlik	jamiga nisbatan foizda

Jami	43 524	100,0	32 717	100,0
-------------	---------------	--------------	---------------	--------------

shu jumladan:

qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	2 2742	52,3	13 294	40,6
sanoat	4 136	9,5	3 784	11,6
qurilish	2 207	5,1	2 108	6,4
savdo	6 375	14,6	5 884	18,0
tashish va saqlash	650	1,5	615	1,9
yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1 543	3,5	1 433	4,4
axborot va aloqa	295	0,7	269	0,8
sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	350	0,8	338	1,0
boshqa faoliyat turlari	5 226	12,0	4 992	15,3

Korxona va tashkilotlar yagona davlat registri ma'lumotlariga ko'ra, 2022 yilning 1 aprel holatiga ro'yxatga olingan yuridik shaxslar soni (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) 25 251 taga yetdi, shundan faoliyat ko'rsatayotganlari soni 23 552 tani yoki jami ro'yxatga olingan yuridik shaxslarning 93,3 foizini tashkil qildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatga olingan korxona va tashkilotlarning asosiy qismi, savdo (jami ro'yxatga olingan yuridik shaxslarning (25,2 %), sanoat (16,4 %), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi (17,7 %) va qurilish (8,7 %) sohalariga to'g'ri keladi.



Jizzax viloyatidagi korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi

(2022 yil 1 aprel holatiga fermer va dehqon xo'jaliklarisiz)

	Ro'yxatga olinganlar		Faoliyat ko'rsatayotganlar	
	birlik	jamiga nisbatan foizda	birlik	jamiga nisbatan foizda
Jami	25 251	100,0	23 552	100,0

shu jumladan:

qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	4 469	17,7	4 129	17,5
sanoat	4 136	16,4	3 784	16,1
qurilish	2 207	8,7	2 108	9,0
savdo	6 375	25,2	5 884	25,0
tashish va saqlash	650	2,6	615	2,6
yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1 543	6,1	1 433	6,1
axborot va aloqa	295	1,2	269	1,1
sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	350	1,4	338	1,4
boshqa faoliyat turlari	5 226	20,7	4 992	21,2



**Jami ro‘yxatga olingan yuridik shaxslarning
hududlar bo‘yicha taqsimlanishi
(2022 yil 1 aprel holatiga, birlik)**

	<i>2022 yil 1 aprel holatiga ro‘yxatga olinganlar soni</i>	<i>shuningdek, 2022 yil yanvar-mart oylari davomida:</i>	
		<i>yangi tashkil etilganlar</i>	<i>tugatilganlar</i>

Jizzax viloyati	43 524	1 416	222
------------------------	---------------	--------------	------------

shahar:

Jizzax	7 229	326	57
--------	-------	-----	----

tumanlar:

Arnasoy	2 537	47	7
Baxmal	3 712	104	6
G‘allaorol	4 974	144	28
Sharof Rashidov	5 975	189	17
Do‘slik	1 989	77	16
Zomin	4 115	126	14
Zarbdor	3 548	82	25
Zafarobod	1 947	50	5
Mirzacho‘l	2 151	56	10
Paxtakor	2 111	67	12
Forish	2 347	98	23
Yangiobod	889	50	2

2022 yilning yanvar–mart oylarida jami 1 416 ta yangi korxonalar va tashkilotlar ro‘yxatga olingan (shundan kichik biznes sub’yeqtleri – 1 359 ta). Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning asosiy qismi Jizzax shahri (viloyat bo‘yicha ro‘yxatga olingan jami korxona va tashkilotlarning 326 tasi, yoki 23,0 %) hamda Sharof Rashidov (189 tasi, yoki 13,3 %) va G‘allaorol (144 tasi, yoki 10,2 %) tumanlariga to‘g‘ri keladi.



**Ro‘yxatga olingan yuridik shaxslarni hududlar
bo‘yicha taqsimlanishi**
(fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz, birlik)

*2022 yil
1 aprel holatiga
ro‘yxatga
olanganlar*

*shuningdek, 2022 yil yanvar-mart
oylari davomida:*

*yangi tashkil
topganlar*

tugatilganlar

Jizzax viloyati

25 251

1 386

168

shahar:

Jizzax	7 153	326	57
--------	-------	-----	----

tumanlar:


Arnasoy	875	47	6
Baxmal	1 625	102	4
G‘allaorol	2 221	144	20
Sharof Rashidov	3 688	185	15
Do‘slik	1 104	77	15
Zomin	2 027	115	5
Zarbdor	1 268	74	6
Zafarobod	764	50	4
Mirzacho‘l	982	52	9
Paxtakor	1 176	66	3
Forish	1 763	98	22
Yangiobod	605	50	2

2022 yilning yanvar–mart oylarida (fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz) jami – 1 386 ta yangi korxona va tashkilotlar ro‘yxatga olingan (shundan kichik biznes sub’yektlari – 1 329 ta). Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning asosiy qismi Jizzax shahri (viloyat bo‘yicha ro‘yxatga olingan jami korxona va tashkilotlarning 326 tasi, yoki 23,5 %), Sharof Rashidov (185 tasi, yoki 13,3 %) va G‘allaorol (144 tasi, yoki 10,4 %) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keladi.

2022 yil 1 aprel holatiga – 21 927 ta tijorat shaklidagi korxona va tashkilotlar ro‘yxatga olingan bo‘lib, shundan xususiy korxonalar – 4 582 ta, oilaviy korxonalar – 20 31 ta, mas’uliyati cheklangan jamiyatlar – 14 846 ta, aksionerlik jamiyatlari – 20 tani tashkil etadi.



Ro‘yxatga olingan tijorat korxonalarining tashkiliy-huquqiy shakllari bo‘yicha soni (fermer va dehaon xo‘jaliklarisiz, birlikda)




2022 yilning yanvar–mart oylarida (fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz) jami – 25 251 ta yangi korxona va tashkilotlar ro‘yxatga olingan (shundan kichik biznes sub’yektlari – 21 836 ta). Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning asosiy qismi Jizzax shahri (viloyat bo‘yicha ro‘yxatga olingan jami korxona va tashkilotlarning 326 tasi, yoki 23,5 %), Sharof Rashidov (185 tasi, yoki 13,3 %) va G‘allaorol (144 tasi, yoki 10,4 %) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keladi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha yangi ro‘yxatga olingan korxona va tashkilotlarning 31,2 foizi savdo, 26,6 foizi qishloq va o‘rmon baliqchlik xo‘jaligi va 26,6 foizi sanoat sohalariga to‘g‘ri keladi.

Hisobot davrida 168 ta korxona va tashkilotlar faoliyati tugatilgan.

Xorijiy kapitali ishtirokidagi korxonalar. 2022 yil 1 aprel holatiga faoliyat ko‘rsatayotgan xorij kapitali ishtirokidagi korxonalar soni 215 tani tashkil etdi.

2022 yilning 1 aprel holatiga xorij mamlakatlar rezidentlari kapitali ishtirokida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar soni 215 tani tashkil etdi. Bunda, Xitoy Xalq Respublikasi rezidentlari kapitali ishtirokida 35 ta, Turkiya Respublikasi 39 ta, Rossiya Federatsiyasi 20 ta, Afg‘oniston 6 ta, Angilya Buyuk Britaniya 10 ta va boshqa davlatlar kapitali ishtirokida 105 ta yangi korxonalar ro‘yxatdan o‘tgan.



Shuningdek, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalardan 139 tasi qo‘shma korxonalar, 76 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to‘g‘ri keladi.

2022-2021 yillar yanvar–mart oylari holatiga xorij mamlakatlar rezidentlari kapitali ishtirokida ro‘yxatdan o‘tgan yangi korxonalar soni – 3 tani tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 27,3 % ga kamayishi kuzatildi. Bunda, Xitoy Xalq Respublikasi rezidentlari kapitali ishtirokida – 1 ta, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 25,0 % ga kamayishdi. Turkiya Respublikasi – 1 ta, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 25,0 % ga kamayishdi. Rossiya Federatsiyasi – 1 ta o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 100,0 % ga o‘zgarmadi. Qolaversa boshqa davlatlarning rezidentlari kapitali ishtirokida 10 ta o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 2 ta bo‘lagan 500,0 % ga oshganligini ko‘rish mumkin, yangi korxonalar ro‘yxatdan o‘tgan.



Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar
(2022 yil 1 aprel holatiga, birlikda)

	<i>2022 yil 1 aprel holatiga faoliyat ko'rsatayotganlar soni</i>	<i>shundan</i>	
		<i>qo'shma korxonalar</i>	<i>xorijiy korxonalar</i>

Jizzax viloyati	215	139	76
------------------------	------------	------------	-----------

shahar:

Jizzax	67	43	24
--------	----	----	----

tumanlar:

Arnasoy	8	5	3
Baxmal	10	7	3
G'allaorol	18	11	7
Sharof Rashidov	15	11	4
Do'stlik	8	5	3
Zomin	16	9	7
Zarbdor	4	3	1
Zafarobod	10	3	7
Mirzacho'l	5	2	3
Paxtakor	8	7	1
Forish	32	25	7
Yangiobod	14	8	6

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning asosiy qismi Jizzax shahrida 67 ta (umumiyligi miqdoridagi ulushi 31,2 %), Forish tumanida 32 ta (14,9 %), G'allaorol tumanida 18 ta (8,4 %), Zomin tumanida 16 ta (7,4 %), Sharof Rashidov tumanida 15 ta (7,0 %), Yangiobod tumanida 14 ta (6,5 %) hamda Zarbdor tumanlarida 4 ta (1,9 %) ni tashkil etadi.



**Xorijiy kapital ishtirokida korxonalarning
iqtisodiy faoliyat turlari kesimida taqsimlanishi
(2022 yil 1 aperl holatiga)**

	<i>Korxonalar soni, birlik</i>	<i>Jamiga nisbatan, % da</i>
Jami	215	100,0
<i>shu jumladan:</i>		
Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi	37	17,2
Sanoat	121	56,3
Qurilish	13	6,0
Savdo	23	10,7
Tashish va saqlash	6	2,8
Yashash va ovqatlanish	2	0,9
Axborot va aloqa	2	0,9
Sog‘lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish	2	0,9
Boshqa faoliyat turlari	9	4,3


Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida xorij kapitali ishtirokida faoliyat ko‘rsatayotgan 215 ta korxonaning 121 tasi (56,3 %) sanoat, 37 tasi (17,2 %) qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi, 23 tasi (10,7 %) savdo, 13 tasi (6,0 %) qurilish, 6 tasi (0,9 %) yashash va ovqatlanish, 2 tasi (0,9 %) tashish va saqlash, 2 tasi (0,9 %) axborot va aloqa, 2 tasi (0,9 %) sog‘lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish hamda 9 % tasi (4,3 %) boshqa sohasiga to‘g‘ri keladi.

Kichik korxona va mikrofirmalar

2022 yil 1 aperl holatiga Jizzax viloyatida faoliyat ko‘rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning soni 20 236 tani tashkil qilgan. Bu ko‘rsatkich 2021 yil 1 aprel holatiga nisbatan 110,0 foizga oshgan. Faoliyat ko‘rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi, ya’ni 5 960 tasi (29,5 %) Jizzax shahriga, 3 139 tasi (15,5 %) Sharof Rashidov, 1 754 tasi (8,7 %) G‘allaorol va 1 589 tasi (7,9 %) Zomin tumanlari hissasiga to‘g‘ri keladi.




**Faoliyat ko‘rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning
hududlar kesimidagi taqsimoti, birlikda**



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko‘rsatayotgan jami 20 236 ta kichik korxona va mikrofirmalarning 5 868 tasi (29,0 %) savdo, 3 748 tasi (18,5 %) sanoat, 4 086 tasi (20,2 %) qishloq, o‘rmon va baliqchlik xo‘jaligi, 2 099 tasi (10,4 %) qurilishda, 1 427 tasi (7,1 %) yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasi, 610 tasi (3,0 %) tashish va saqlash, 252 tasi (1,2 %) axborot va aloqa sohasi, 248 tasi (1,2 %) sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish, shuningdek 1 898 tasi (9,4 %) boshqa faoliyat turlari hissalariga to‘g‘ri keladi. Shundan ko‘rinib turibdiki, faoliyat ko‘rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi savdo va sanoat tarmoqlariga to‘g‘ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa, sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa sohalariga to‘g‘ri keladi.



Faoliyat ko‘rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar
sonining iqtisodiy faoliyati turlari bo‘yicha taqsimoti, % da
(dexqon va fermer xo‘jaliklariz)



2022 yilning yanvar–mart oylarida 1 329 ta kichik korxona va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2021 yilning shu davriga nisbatan solishtirilganda 107,9 foizni tashkil qildi. Eng ko‘p yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar Jizzax shahrida (305 ta), Sharof Rashidov (179 ta), G‘allaorol (142 ta) va Zomin (111 ta) tumanlarida tashkil etilgan. Eng kam Yangiobod (46 ta), Zafarobod (50 ta), Mirzacho‘l (54 ta) hamda Arnasoy (43 ta) tumanlarida tashkil etilgan.


Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni taqqoslanganida eng ko‘pi savdo (432 ta), qishloq, o‘rmon va baliqchlik xo‘jaligi (398 ta), sanoat (255 ta), qurilish (67 ta) va yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar (63 ta) sohalarida tashkil etilgan. Eng kam esa, sog‘lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘satish (15 ta), tashish va saqlash (17 ta) hamda axborot va aloqa (24 ta) sohalari hissasiga to‘g‘ri kelgan.

Yuridik shaxs sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tgan oilaviy korxonalar soni 2022 yilning 1 aprel holatiga 2 031 tani tashkil etdi, ulardan 1 829 tasi yoki 90,1 foizi faoliyat yuritmoqda.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda, faoliyat ko‘rsatayotgan oilaviy korxonalarning 760 tasi yoki 41,6 foizi sanoat, 367 tasi yoki 20,1 foizi savdo, 290 tasi yoki 15,9 foizi qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi, 270 tasi yoki 14,8 foizi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 11 tasi yoki 0,6 foizi sog‘lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish, 9 tasi yoki 0,5 foizi qurilish, 7 tasi yoki 0,4 foizi axborot va aloqa, 2 tasi yoki 0,1 foizi tashish va saqlash hamda 113 tasi yoki 6,2 foizi boshqa faoliyat turlari hissasiga to‘g‘ri keladi.



Xususiy korxonalar soni (2022 yil 1 aprel holatiga ko'ra, birlikda)



Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan xususiy korxonalar soni **2022 yil 1 aprel** holatiga ko'ra 4 582 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 447 taga yoki 91,1 % ga kamayganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan xususiy korxonalar soni 4 170 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 408 taga yoki 91,1 % ga kamayganligini ko'rish mumkin.

2022 yil yanvar-marl oylarida yangi tashkil etilgan xususiy korxonalar soni 123 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 18 taga yoki 117,1 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni (2022 yil 1 aprel holatiga ko'ra, birlikda)

Tashkiliy - huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2022 yil 1 aprel holatiga ko'ra 14 846 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 2 200 taga yoki 117,4 % ga oshganligini ko'rsatmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 13 916 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 1 925 taga yoki 116,1 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2022 yilning yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 961 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 67 taga yoki 107,5 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

